

SOVET HUKUMATINI QO'RQUVGA SOLGAN  
QO'RBOSHINING SIRLI O'LIMI...

*Misaboyeva Mohinura Baxtiyorovna*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-kurs magistranti*

+998944138833

**Annotatsiya.** Ushbu maqola [Turkistonda](#) sovet rejimiga qarshi qurolli harakatlarning dastlabki davri haqida bo'lib, unda Turkiston aholisining ko'rgan jabr zulumi, Sovet hukumatiga qarshi boshlangan ilk ozodlik harakatlari, Turkistonning mard o'gloni Madaminbekning hayoti, faoliyati va sirli o'limi haqida qisqacha ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** Turkiston o'lkasi, Rossiya imperiyasi, general-gubernator, muxtoriyat.

ЗАГАДОЧНАЯ СМЕРТЬ ПОЛКОВОДЦА, НАПУГАВШЕГО  
СОВЕТСКОЕ ПРАВИТЕЛЬСТВО...

**Аннотация.** Данная статья посвящена раннему периоду вооруженных движений против советской власти в Туркестане, в ней кратко описаны притеснения народа Туркестана, первые освободительные движения против советской власти, жизнь, деятельность и загадочная смерть храброго сына. Туркестан Мадаминбек предоставляет информацию.

**Ключевые слова:** Туркестанская область, Российская империя, генерал-губернаторство, автономия,

THE MYSTERIOUS DEATH OF A COMMANDER WHO  
FRIGHTENED THE SOVIET GOVERNMENT...

**Annotation.** This article is devoted to the early period of armed movements against Soviet power in Turkestan, it briefly describes the oppression of the people of Turkestan, the first liberation movements against Soviet power, the life, activities and mysterious death of a brave son. Turkestan Madaminbek provides information.

**Key words:** Turkestan region, Russian Empire, general government, autonomy.

Tarixga nazar solar ekanmiz xalqimiz hech qaysi davrni onsonlikcha boshdan kechirgan emas. Har bir davr o'zining zalvori bilan o'tgan. Lekin xalqimiz, millatimiz uchun eng mashaqatli davr bu savet davri bo'ldi deyish mumkin. Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylantirilib, bu hududda zo'rlikka asoslangan

boshqaruv tizimi va siyosati olib borildi. Turkistonning mazlum xalqi o'z erki, ozodligidan mahrum etilib, tobe bo'lib qoldilar. Bu tobelik sovetlar hokimiyati uchun juda zarur edi. Ular olib borayotgan siyosatga qarshi chiqadigan, dunyo o'zgarishlariga intiladigan millatning hech keragi yo'q edi.

Turkistonning so'nggi general-gubernatori A. Kuropatkindek yuqori martabali «zot» ham: «Biz 50 yil tub joy aholini taraqqiyotdan jilovladik, uni maktablar va rus hayotidan chetda tutdik», deb e'tirof etgan edi. Biroq shu narsa haqiqatki, bu o'lkaning tabiatan mag'rur xalqlari hech qachon o'zlarining chor-nochor qismatiga tan berib, o'zgalar jiloviga bo'ysunib yashashga rozi bo'lmaganlar, balki, aksincha, o'z erki, milliy mustaqilligi yo'lida mardonavor kurashganlar.[1].

Turkiston muxtoriyatining qonga botirilishi sovetlarga ishonch yo'qligidan dalolat edi. Endi mahalliy aholini ularning asl niyati nima ekanini bildilar va Turkiston istiqlochlilarining safini ko'paytirishni boshladilar. Turkiston muxtoriyatining bolsheviklar tomonidan tor-mor qilinishi Turkistonda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni nixoyatda keskinlashtirdi. Muxtoriyat hukumatining tugatilishi xalq harakatning butun Farg'ona vodiysida ommaviy ravishda boshlanishiga turtki bo'ldi. Chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan farg'onaliklar endi bolsheviklar tuzumi va sovet Rossiyasiga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Turkiston muxtoriyatining tugatilishi natijasida o'lkada sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurash boshlangan. Milliy-ozodlik harakati uzluksiz sal kam 20 yil, 1918–1935-yillargacha davom etgan. Ularga Katta Ergash, Kichik Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek, Ibrohimbek, Fuzayl Maxsum singari milliy yetakchilar bosh bo'lganlar. Istiqlochilik harakati goh kuchayib, goh pasayib turgan. Harakatning asosiy maqsadi Turkiston mustaqilligi uchun kurash bo'lib qolaverdi. Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi kurash 1918-yil fevral oyi oxirlarida boshlandi. Harakatning bosh g'oyasi Turkiston mustaqilligi edi. Farg'ona vodiysidagi istiqlochilik harakati 1919-yil yozning oxiri va kuzida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Madaminbek boshchiligidagi qo'shinning sovet hukumatiga qarshi hujumi Farg'ona vodiysini larzaga keltirdi.[2].

Madaminbek (Muhammad Aminbek) Ahmadbek o'g'li 1892-yilda Marg'ilonning So'qchilik kasabasida qashshoqlanib qolgan bekdodlar xonadonida tug'ilgan. Marg'ilonida Madaminbekning avlod-ajdodlarining "Bekulug'" deb yuritishardi. Bu bejiz emas. Asli hozirgi Toshloq rayonining Sadda qishloq sho'rosi hududida joylashgan So'xchilik qishlog'ida 1892-yili tavallud topgan Madaminbek el-yurtga taniqli yigit edi. Madaminbek beklik unvonini qo'rboshilik faoliyatini boshlaganidan so'ng olgan emas. So'qchilik qishlog'idagi keksalar va Madaminbekning turmush o'rtog'i Saodat ayaning xotirlashicha, u nasl-nasbi jihatidan ham bek bo'lgan. Ruslar Farg'onani bosib olganlaridan so'ng, Madaminbek ajdodlari o'z mavqelarini yo'qotadilar. Uning otasi Ahmadbek qoshiq, cho'mich va boshqa ro'zg'or buyumlarini ishlab choiqaradigan

kichik ustaxonaning egasi edi. Oz-moz savdogarchilik bilan shug'illanar edi. Madaminbekning bir akasi va ikki opasi bo'lgan.[3]. Madaminbek Birinchi jahon urushi arafasida chor Rossiyasi hukmronligiga qarshi bosh ko'taradi. 1914-yili qamoqqa olinadi. Sud Madaminbekni o'zi tan olmagan ayblar - qotillik va o'g'irlikni unga to'nkab, 14 yilga Sibirdagi Nerchinsk degan joyga katorgaga hukm qiladi. 1917-yil Fevral inqilobidan keyin siyosiy mahbus sifatida Madaminbek ozodlikka chiqadi va Marg'ilonga qaytib keladi. Madaminbek 1918-yil boshlarida Marg'ilon militsiyasi boshliqligiga tayinlanadi.[4]. Ammo tez orada u bu ishdan iste'fo beradi. Uni tarix sahnalariga muxrlagan fidokorlik yo'lini tanlaydi. Madaminbek tabiatdan yo'l boshchi bo'lishi uchun yaralganini juda tez sur'atlarda namoyon etadi.

Marg'ilonda militsiyaning sobiq boshlig'I Muhammad Aminbek Ahmadbek o'gli-Madaminbek (1892-1920) kurash boshladi. "O'z oldiga sovet hokimiyatini ag'darish va Farg'ona muxtoriyatini tiklash vazifasini qo'ygan Madaminbek ustomon siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlariga ega edi",-deb tan olinadi 1918-yilga oid arxiv hujjatlarining birida. Farg'ona vodiysida 1918-yilning o'rtalariga kelib, taxminan yuzga yaqin qo'rboshilar o'z dastaklari bilan qizil armiya qismlariga qarshi kurash olib bordilar. Bu guruhlarda 15000 yigit bor edi.[5].

Farg'ona vodiysidagi bu harakat 1919-yil yozining oxiri va kuzida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Madaminbek boshchiligidagi istiqololchilar safiga Jalolobodda turgan rus krestyanlari armiyasining qo'shilishi vodiya sovet hokimiyatini ag'darish uchun real kuch edi. Sentyabr oyining dastlabki kunlarida Madaminbek lashkarlari Jalolobod va O'sh shaharlarini egallashdi. Ular 13-sentabr Eski Marg'ilon shahrini qizil bosqinchilardan ozod qildilar. Shu bilan birga vodiydagi eng yirik strategik shahar-Andijonni qamal qilishga kirishdilar. Madaminbek boshchiligidagi qo'shinmg hujumi Farg'ona vodiysini larzaga keltirdi. 1919-yil 22-oktabrda Pomiming Ergashtom ovulida bo'lgan anjumanda Madaminbek boshchiligidagi Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi. Hukumat tarkibiga 16 tub aholi va 8 yevropalik kiritildi. Madaminbek hukumat boshlig'i bo'lish bilan bir qatorda Farg'ona vodiysidagi bu harakatning Oliy bosh qo'mondoni ham etib saylandi. 1919-yilning kech kuziga kelib Madaminbek qo'l ostida 30000ga yaqin yigit qizil armiyaga qarshi janglar olib bordilar. Bu paytda Shermuhammadbek qo'l ostida 20000, Katta Ergash qo'rboshida 8000 askar bo'lgan. Ana shu uchta lashkarboshi vodiydagi jangovar harakatiarni yo'naltirib turdilar.[5]. Kundan-kunga kuchga to'lib borayotgan Madaminbek Sovet hukumatini qo'rquvga sola boshladi. Endi ular bor e'tiborini Farg'onadagi ozodlik harakati a'zolariga qaratdilar. Ular o'z oldilariga avvalo qo'rboshilar orasiga fitna urug'ini sochishni, keyinchalik birma-bir qo'rboshilardan qutilishni niyat qilgan edilar. Buni sezgan va tayyorgarlik ko'rishni istagan Madaminbek harbiy va moddiy yordam so'rab Buxoro amirligi va Afg'oniston hukumatiga o'z vakillarini yubordi. Ammo, hech qanday yordam ololmadi.

1920-yil fevralida sovet qo'shinlari Madaminbek, Shermuhammadbek qo'shiniga qarshi o'nlab samolyot, bronepoezd, katta miqdordagi to'p pulemyotlar bilan hujumga o'tdi. Harbiy tashabbus qo'ldan ketganligini his etgan Madaminbek o'z qo'shini, yigitlarini saqlab qolish maqsadida yarash muzokaralarini taklif etdi, hamda u bilan diviziya boshlig'i Veryovkin-Raxalskiy o'rtasida 1920-yil 6-martda Skobelev shahrida yarash bitimi imzolandi. Taslim bo'lganlarni avf etish haqidagi sovet hukumatining qarori chiqqan bo'lsada, bolsheviklar tomonidan o'ldirilgan Madaminbek o'limining ertasi kuniyoq boshqa istiqlochlilarni ham shafqatsiz qirish boshlandi.[6].

Madaminbekning o'limi XX asrning sirli o'limi deya olamiz. Chunki Madaminbekning o'limi haqida turli xil qarashlar va taxminlar bor. Hozirgi kunga qadar aniq bir voqeani biz isbotini topdi deya olmaymiz. Madaminbekning o'limi haqida turli ma'lumotlar keltiriladi.

Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda Madaminbekni "sotqin" sifatida Shermuhammadbekning buyrug'i bilan Xolxo'ja tomonidan otib tashlangani ta'kidlanadi. Ingliz tarixchisi Glenda Frezer o'zining "Bosmachilar" asarida shunday yozadi: "Madaminbek Shermuhammadbek oldiga tinchlik missiyasi uchun jo'natildi. Shermuhammadbek Madaminni ayg'oqchi sifatida 14-may kuni otib tashlaydi". Ammo, bu fikrlar hech qanday dalil-asosga suyanmaydi. Turk tarixchisi Ali Bodomchining ikki jildlik "Qo'rboshilar" asarida yozishicha Madaminbekni Xolxo'ja o'ldirmagan. Turk tarixchisi qo'rboshini Shermuhammadbek o'ldirgan, degan fikrni ham rad etadi. U Madaminbekni o'ldirilishini Sovetlar uyushtirganini asosli dalillar bilan isbotlaydi. Bu ishni ruslarga sotilgan Soyib qori va Lutfullo maxdum amalga oshirgan. Ali Bodomchining ta'kidlashicha ular Madaminbekni o'ldirib, so'ng Buxoroga qochib ketishgan. Shermuhammadbek o'z xotiralarida Madaminbekning o'ldirilishi haqida yozib qoldirgan: "Muhammad Aminbekning o'lganini, – deb eslaydi Shermuhammadbek, – men kech eshitdim. Karboboga qaytkanimizdagina bu haqda xabar yopdik. Jang paytida unga hech ko'zim tushmadi. Chunki, biz hayot-mamot jangiga kirgan edik. Xolxo'ja Muhammad Aminbekni asir olgan paytda uni askarlaridan Soyib qori va Lutfullo maxdumga topshirgan edi. Ular qo'rboshini o'ldirib Buxoroga qochdilar. Muhammad Aminbekni men yoki Xolxo'ja tomonidan o'ldirilgan degan fikr ruslar tomonidan bizga qarshi qilingan tashviqot edi".[7].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Madaminbek va uning safdoshlari xalq, millat uchun mardonavor kurashdilar. Bu kurashda hech kimga bo'yin egmadilar. Ammo dushman ham anoyi emas edi. Ularnig ham bunday vatanparvarlar uchun o'z rejasi bor edi. Garchand Vatanparvar qo'rboshilarimiz o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga to'liq erisha olmagan bo'lsalar ham, ular kelgusidagi ozodlik uchun kurash va mustaqillik uchun maydon yaratdilar.

**FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- [1].Q. Usmonov, M. Sodiqov O'zbekiston tarixi (1917—1991-yillar) «SHARQ» nashriyo-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati Toshkent-2010y. 5-bet
- [2].O'zbekiston tarixi (XIX asr ikkinchi yarmidan – XX asr oxirigacha) Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinf o'quvchilari uchun darslik Yangi nashr O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi nashrga tavsiya etgan Toshkent 2022 y.109-bet
- [3]. A. Ibodinov, “Qo'rboshi Madaminbek”, Yozuvchi. 1993y.154-bet
- [4]. Q.Rajabov, O'zbekiston adabiyoti va sanati gazetasi, 2002, 21-son.
- [5]. R.H.Murtazuyeva “O'ZBEKiSTON TARIXI” Toshkent-2005y.316-bet
- [6]. Mansurxo'ja Xo'jaev , Ko'rsatilgan asar , 20-bet
- [7]. <https://qalampir.uz/uz/news/fitna-k-urboni-bol-sheviklarga-k-arshi-kurashgan-madaminbek-k-urboshini-kim-uldirgan-48319>